


Chevening Grantlar Dasturi



TAKES
YOU
PLACES

Vebinar yo'l-yo'riqlari:

- Ovoz va mikrofonlarni o'chirib qo'yishingizni iltimos qilamiz
- Texnik muammolar bo'lsa chatda yozib qoldiring
- Taqdimot davomida ekrandagi ma'lumotlarni rasmga olsangiz bo'ladi (screenshot)
- Savollarni taqdimotlardan so'ng chatda yozish orqali so'rash imkoniyati bo'ladi

Chevening Grantlar Dasturi O'zi Nima?



CHEVENING

CHEVENING

chevening.org

[#GoPlacesWithChevening](#)

Chevening stipendiyalari nima?

Buyuk Britaniya hukumatining Tashqi ishlar va taraqqiyot vazirligi (FCDO) va hamkor tashkilotlar tomonidan moliyalashtiriladigan global stipendiya dasturi.

160 dan ortiq mamlakat va hududlarda mavjud bo'lgan ushbu stipendiyalar istalgan fan bo'yicha va Buyuk Britaniyaning istalgan universitetida bir yillik **magistrlik darajasini** qo'llab-quvvatlaydi.



CHEVENING

Kimlar Ariza Topshira Oladi?

Chevening stipendiyalari kim uchun?

Chevening sovrindorlari o'z mamlakatlarida ijobiy o'zgarishlar yaratishga ishtiyoqli **yetakchilardir**. Ular munosabatlar o'rnatishda yaxshi (**networking**), qat'iyatli va o'z maqsadlariga erishish uchun qisqa, **o'rta va uzoq muddatli rejaga ega**.

Chevening sovrindorlari o'z mamlakatlarida va tanlagan sohalarida **yuqori lavozimlarga** ko'tarilishadi.

Ariza topshirish shartlari:

- O'zbekiston fuqarosi bo'lish;
- Bakalavr diplomiga ega bo'lish;
- Kamida ikki yillik ish tajribasiga ega bo'lish;
- Ilgari Buyuk Britaniyada o'qish bo'yicha grant olmagan bo'lishi kerak;
- O'qishni bitirgach, O'zbekistonga qaytib kelish va kamida 2 yil ish faoliyatini davom etish shart.

! Stipendiya taqdirlanishidan avval tanlangan 3 universitetdan hech bo'lmasa bittasidan ***to'liq qabul qilinganlik hujjatini*** olish kerak
(**unconditional offer**)



CHEVENING

Chevening Stipendiyasi Nimalarni Qoplaydi?



Chevening stipendiyasi quyidagilarni qoplaydi:

- Bir yillik magistratura kontrakt to'lovi
- Oylik stipendiya
- Buyuk Britaniyaga borish va qaytish aviachiptalari
- Qo'shimcha xarajatlar uchun to'lov

* Istisno: MBA dasturlari uchun maksimum £22,000 miqdorida to'lov qoplanadi.

**Chevening Stipendiyasi
Yana Nimalarni
O'z Ichiga Oladi?**

Chevening stipendiyasining qo'shimcha afzalliklari:

- Eksklyuziv marosimlar va tadbirlar
- Stajirovka (internship) imkoniyatlari
- Turli ko'ngilli ish imkoniyatlari (volunteering)
- 50,000 dan ortiq Chevening bitiruvchilari tarmog'iga qo'shilish
- Buyuk Britaniya madaniyatini o'rganish va tabiatini kashf etish





CHEVENING

Chevening Bitiruvchilari Jamiyati



Chevening Bitiruvchilari Jamiyati

Chevening dasturi dunyo bo'ylab 1983-yildan beri,
O'zbekistonda esa 1994-yildan buyon faoliyat yuritadi.

Hozirgi kungacha Chevening dasturini bitirgan yetakchi
mutaxassislar soni **50,000** tadan oshdi.

Dasturning O'zbekistondagi bitiruvchilari **UCAN (Uzbekistan
Chevening Alumni Network)** jamiyati doirasida yig'ilib, turli
tadbirlar, professional bilim almashinuvlari o'tkazib turadilar.



CHEVENING

Ariza Topshirish

MUHIM ESLATMA!

Ariza topshirishdan avval mana shu muhim shartlarga mos kelishingizni tekshiring:

1. Siz O'zbekiston Respublikasi fuqarosisiz;
2. Ariza topshirayotgan vaqtda sizda allaqachon bakalavr diploma mavjud;
3. Ariza topshirayotgan vaqtda sizda allaqachon kamida 2-yillik professional ish tajribasi bor;
4. G'olib bo'lsangiz, Buyuk Britaniyada o'qishni tamomlagach, albatta O'zbekistonga qaytib kelasiz va kamida 2 yil shu yerda ish faoliyatingizni davom etasiz.

ISH TAJRIBASI

Ish tajribasiga quyidagilar kiradi:

- Bir yoki yarim stavkali ish tajribasi;
- Ko'ngilli ish faoliyatlari (volunteering experience);
- To'lovli yoki to'lovsiz, uzoq yoki qisqa muddatli stajirovkalar (paid/unpaid internships).
- **QABUL QILINMAYDI:** o'qishni bitirish, diplom olish uchun kerak bo'lgan amaliy ish faoliyati ("praktika").

Umumiy hisobda 2,800 soatlik ish tajribasi chiqishi kerak!
Onlayn arizada 15 tagacha ish joylarini kiritishingiz mumkin.

Grantga topshirish shartlari:

I. 2-avgustdan 1-noyabr (2022) oralig'ida:

- Onlayn ariza to'ldirish;
- 3 ta Britaniya universitetini/ yo'nalishlarini yaxshilab o'rganib, tanlash (buni avvaldan boshlasangiz bo'ladi);
- Mukammal insholar yozish (4 ta mavzuda)

II. Fevral-martgacha 2023 (intervyu kunigacha):

- 2 ta tavsiyanoma (biri ish boshlig'ingizdan, biri professoringizdan bo'lishi mumkin).
Qarindosh va do'st-tanishlardan tavsiyanomalar qabul qilinmaydi!

III. 2023-yil 13-iyulgacha:

- Uchta tanlangan universitetdan hech bo'lmasa biridan to'liq qabul qilinganlik xati (Unconditional offer)

IELTS/ TOEFL imtihoni biz tomondan talab qilinmaydi, ammo universitetlarga hujjat topshirganda talab qilinishi mumkin, buni o'zingiz alohida reja qiling!

4 ta insho (essay) mavzulari

Yetakchilik

- Aniq misollar yordamida yetakchilik va ijoyib ta'sir ko'rsatganligingiz haqida yozing.

Aloqalar o'rnatish (networking)

- Qanday muhim professional aloqalar o'rnata olganingiz va bu borada maqsadlaringiz bo'yicha misollar bering.

Buyuk Britaniyada o'qish

- Sizning professional tajribangiz siz tanlagan universitet va yo'nalishga qay tarzda to'g'ri kelishi, nega aynan Buyuk Britaniyada o'qish sizga muhim ekani haqida so'zlang

Karyera rejalaringiz

- Qisqa/uzoq muddatdagi professional maqsadlaringiz nima ekanligini tushuntiring. Ularga qanday erishmoqchisiz, Buyuk Britaniyada ta'lim bunda

Ba'zi foydali maslahatlar

To'g'ri (DO's)

- Topshirmoqchi bo'lgan universitet va kurslarni tanlashga yetarlicha vaqt ajrating;
- Insholarning mukammalligiga ahamiyat bering;
- Nega aynan Buyuk Britaniyada o'qish sizga kerakligiga urg'u bering (o'qish va madaniyat bo'yicha);
- Intervyuda qo'shimcha misollar bering.

Noto'g'ri (DON'Ts)

- Plagiarizm – boshqa mualliflarning ishlarini ko'chirib yozish, yoki insholarni boshqa insonlar yozib berishi mumkin emas;
- Yetakchilik misollariga BOG'CHA, BOSHLANG'ICH sinflardan misollar keltirmang!
- Umumiy gaplar, maqollar, klishe iboralardan kamroq foydalaning (iloji bo'lsa foydalanmang).

Ariza topshirish jarayoni: muhim sanalar

2-avgust 2022 Arizalar qabuli boshlandi

1-noyabr 2022 Arizalar qabuli yopiladi

Noyabr boshlarida 2022 Barcha arizalar birlamchi tekshiruvdan o'tadi (onlayn)

Noyabr-Dekabr oylari 2022 Londonda maxsus komissiya arizalarni ko'rib chiqadi

Yanvar-Fevral oylari 2023 Tanlangan arizalar intervyu bosqichi uchun ajratiladi

Fevral 2023 Nomzodlar intervyuga taklif qilinadi

Ariza topshirish jarayoni: muhim sanalar

Fevraldan Aprelgacha 2023 Intervyular

Iyun 2023 Intervyu javoblari e'lon qilinadi

13-Iyul 2023 G'oliblar shu sanagacha hech bo'lmasa bitta tanlangan universitetdan to'liq qabul qilinganlik xatini yuklashi shart (**unconditional offer**)

Sentabr- Oktabr oylari 2023 G'oliblar Buyuk Britaniyaga kelib o'qishlarini boshlaydilar



CHEVENING

Chevening sahifalari

Chevening ijtimoiy tarmoqlarda

Vebsayt: **chevening.org**

Facebook
Twitter
Instagram

@cheveningfcdo

LinkedIn **‘Chevening Awards’**

Buyuk Britaniya elchixonasi sahifalari:

Instagram: **UK in Uzbekistan**

Twitter: **UK in Uzbekistan**

Facebook: **UK in Uzbekistan**

E'tiboringiz uchun rahmat!

Savollar bormi?

